

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIC MAHORATGA ZAMONAVIY YONDASHUV

*Buxoro davlat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
“Geografiya” kafedrasи dotsenti - N.Sh.Shadiyeva
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishi talabasi
S.H. Rahimova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda geografiya darslarini o‘tishda interfaol metodlar va ulardan foydalanish ko‘nikmalar haqida yozilgan. Unda o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: An’anaviy dars, noan’anaviy dars, bilimli avlod, mustaqil fikrlash, ta’lim metod, ko‘rgazmali qo‘llanma, geografik matnlar, globus bilan ishlash, geografik maydoncha.

Bugungi kunda geografiya talimi juda jadal rivojlanmoqda. Geografiya ta’limi deganda biz o‘quvchilarga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy komplekslarning tuzulishi va qonuniyatları haqida bilimlar beradiga geografiya fanlar tizimi tushuniladi. Geografiya ta’lim metodikasi esa maktablarda va kasb hunar kolllejlarida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o‘qitish jarayonini o‘rganadigan va pedagogika fanlar tizimidagi fandir. Geografiya fani o‘quv dasturlari ko‘pchilik davlatlarda bir xil bo‘lib mamlakatning tabiiy va iqtisodiy o‘rnini belgilashga qaratilgan. Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi o‘quv dasturlari geografiya darsliklari mamlakat xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuzilmoqda. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda geografiya ta’limining mazmuni jihatdan yuqori darajada bo‘lib o‘quvchilarda ma’lum ko‘nikmalar olishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar umumiyligi o‘rta ta’lim maktablari oldiga muhi, vazifalarni qo‘ymoqda. Bu vazifalar yoshlarni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrli, milliy merosizmi qadrlaydigan , ilmli ijodkor, nozik didli qilib tarbiyalashni o‘qituvchilardan tinmay ijodiy izlanishlarni, fidoiylik ko‘rsatishni talab etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojatnomasida “Uchinchi ming yillik intelektual rivojlanish davrida ta’lim muassalarida pedagogik tehnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda ilmiy bilimlarga asoslangan dunyoqarash va e’tiqodlarni shakllantirib borish lozim”ligini ta’kidlagan. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta’lim berish va va shu orqali jismoniy baquvvat, ma’naviy jihattan yetuk, bilimli avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash dunyoqarashini kengaytirish, iste’dodli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi ko‘plab vazifalarga qaratilgandir. Bugungi kunda har bir fan o‘qituvchisi o‘z fani bo‘yicha dars samaradorligiga te’sir etuvci omlillarni chuqr bilshi va ulardan dars jarayonida foydalana olishi zarur bo‘ladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo‘lida barcha fanlar qatori geografiyaning ham o‘rni kattadir. Geografiya fani o‘zining qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Geografiya darslariniva sinfdan atshqari ishlarni qiziqarli va ijodiy tashkil etish

geografiya o‘qituvchisi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Darsda geografik metodlardan foydalanish muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda geografiyanı o‘qitish an’anaviy va noan’anaviy usullarda olib borilad.

An’anaviy ta’lim metodlari ta’lim jarayonida o‘quvchilar muayyan bilimlar ko‘nikma va malakalarini egallaydilar. O‘quv materialidagi bitta mazmunnig o‘zi ta’limning turli vostalari yordamida har xil usullar bilan o‘zlashtirish mumkin.

Noan’anviy dars usulida an’anaviy usuldagidek tashkiliy, o‘tgan mavzuni so‘rash,yangi mavzu bayoni, darsni mustahkamlash singari bosqichlar bo‘lmaydi har bir darsning o‘zida xos qolipi bo‘ladi. An’anaviy usullardan ko‘ra noan’anaviy usullarda o‘quvchilarining dars mavzusini o‘zlashtirib olish imkoniyati kengroq bo‘ladi.

Geografiya ta’limi usullari

t/r	Umumiy usullar	Xususiy usullar
1	Og‘zaki bayon	Tushuntirish, hikoya, o‘qituvchining o‘qib berishi, taqqoslash, savol-javob, suhbat, maruza.
2	Kartografik qo‘llanmalar bilan ishslash.	Reja , topografik karta, umumgeografik karta, mavzuli karta, yozuvsız karta. Karta sxema , globus bilan ishslash. Geografik nomlarni o‘rganish, karta bo‘ylab sayohat,karta ko‘chirish, kartogrammalar tuzish.
3	Darslik va qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishslash	Izohli o‘qish, mavzu rejasi tuzish, darslik matnini mustaqil o‘qish, darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarish. Darslikdagi karta sxema va sxemalar bilan ishslash. Vaqtli matbuot yangiliklarini o‘qish, xrestomatiya malumotlarini oqib borish badiiy adabiyotlardan mavzuga doir parcha yozish.
4	Korgazmali qo‘llanmalar bilan ishslash	Rasmlar bilan ishslash, ko‘rgazmali qurollar bilan ishslash,(kompyuter, diafilm, kinofilm, videoroektor), hajmli qo‘llanmalar bilan ishslash,(globus model, tellyuriy, maket, grafik tasvirlar, sxema,diagramma va h.k), turli chizmalar bilan ishslash.
5	Kuzatish	Obyekt va hodisani bevosita kuzatish, geografik , astronomic, gidrografik, geomorfologik,fenologik kuzatishlar geografik maydonchada sayohatlar va tajribalar
6	Birlamchi manbalar	Davlat hujjatlari, geografik matnlar, gazeta, jurnal, badiiy adabiyotlar bilan ishslash

Ma'lumki interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib ularning aksariyati tajriba-sinovidan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar. "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits so'rov", "Muammoli vaziyat", kabilardan foydalanib darsda saarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Skveyn", "Teskari test", "Aql charxi", metotlarini yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang", tehnologiyalarini, mavzuni ustahkamlash qismida "Ven diagrammasi", "Baliq skleti", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpakalak" metodlarini uyga vazifa jarayonida "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini oshiradi.

"Sinkveyn usuli". Sinkveyn –fransuzcha so'z bo'lib, "besh"degan manoni bildiradi. Bu usul qatorlar usuli bo'lib, besh qatordan iborat. Har bir qatorga berilgan so'zlar bitta gap hisoblanib u keng manoni o'ziga qamrab oladi.

1-qator. Mavzu bitta so'z bilan ifodalanadi.

2-qator. Ikkinci zo'z qo'shilib mazmuni kengaytiriladi.

3-qator. Uchinchi so'z biriktirilib voqelik ochib beriladi.

4-qator. To'rtinci so'z qo'shilib, voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.

5-qator. Bitta so'z bilan yakunlaydi.

"Criysis" (Krizis) metodi

Bu metod muammoning asl mohiyatini ochish, murakkab fikrlarni tushunib olish, shubhalarni qat'iy ishonchga aylantirish mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, muhokamani boshqarish yoki bildirilayotgan fikrlarning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlash kabi keng qamrovli, turli yo'nalishdagi maqsadlar yo'lida ishlatilishi mumkin. Bu metod ta'limda savol berishning qanchalik darajada muhim va kerakli ekanligini ko'rsatib beradi. Bu metod orqali o'rganish usuli izchil tarmoqlangan hamda tartibga solinmagan bilimlar o'rtaсидаги farqni oydinlashtiradi. U fikrlarimizni yanada chuqurroq mushohada qilishni o'rgatadi.

"Criysis" metodning borishi

"Criysis" inglizchadan tarjima qilinganda "Inqiroz" degan ma'noni anglatadi. Bu usul guruhlar bilan bog'liq usul bo'lib 3 guruhdan iborat bo'ladi.

1-guruhi: O'qituvchi guruhga savol beradi.

Guruh javob bergandan keyin ikkinchi guruhga o'tiladi. Agar javob bera olmasa, bu guruh inqirozga yuz tutadi va berilgan savol o'z navbatida keying ikkinchi guruhga o'tadi. **"Criysis"** shu tariqa davom etadi. Bu uncha katta bo'limgan va hozirgi kunda murakkab bo'lgan muammoli 3 ta savolni o'z ichiga oladi.

Ushbu metoddan foydalanishning afzallikkleri:

- So'roq usulining tarmoqlanganligi.
- Fikrlashning asosiy jihatlarini to'liq qamrab olganligi.
- Muammolarni hal qilish asoslarini o'zida mujassamlashtirganligi.
- Tinglovchida muammoning yechimiga bo'lgan qiziqish ortishi.

O'qituvchining ushbu metoddan foydalanishdagi asosiy maqsadi:

- ✓ Tinglovchining ma'lum ilm sohasidagi bilmini qanchalik chuqr ekanligini aniqlash.
- ✓ Uning mushohada yuritishini tekshirish.

✓ Muammoli holatlarni bartaraf etishda amaliy usullardan qanchalik foydalanayotganligini kuzatish.

Foydalanish maqsadlari:

❖ Savol berish orqali tinglovchining malum sohani yoki mal'lumotni qay darajada tushunganligini aniqlash, uning bilmini tekshirish.

❖ Tinglovchilarda darsdan tashqari kundalik hayotlarida so'roqlash orqali muammoning asl mohiyatini ochishga o'rgatish.

Mashg'ulotlarda o'qituvchilar tomonidan metodni quyidagi olti korinishda ifodalash mumkin:

1. Tinglovchilarni tahmin qilishga o'rgatish
2. Tinglovchilarni o'z fikrini aytishga undash.
3. Bahsning asosini isbot tashkil etishga o'rgatish.
4. Qarshi fikr mushohadasini hisobga olish.
5. Fikrlashda uzbekistikni ta'minlash.
6. Savolni so'roqlashga o'rgatish.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlarni mustaqil o'rganisgda qo'llash juda samarali hisoblanib, talabalar ayniqsa o'z ustida ko'proq ishlovchi talabalar uchun juda foydali metod hidoblanadi. Hozirgi kunning talabi yoshlarni iqtidorli, aqli, innovatsiyaga ega, bo'lishlari bilan bir qatorda har tomonlama yetuk va barkamol shaxsga aylanishi bugungi ta'lim sohasidagi olib borilayotganishlarning natijasidir. Turli mazmundagi jadvallarni tuzish va uni to'ldirish talabani iqtidori va inovatsiyaga intilishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Vaxobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultanova. Geografiya o'qitish metodikasi. T.2021-yil
2. S.N.Abduvohidov, Z.A.G'aniyev . Geografiya ta'limi metodikasi. Samarqand. 2021-yil.
3. A.Hayitov, N.Boymurodov. Ta'limda noana'naviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. Toshkent. "Yangi asr avlod" 2006-yil
4. F.T.Rajabov, SA.U. Sattorov (2020)Farms of Uzbekistan: Development , Specialization, Geography. Journal of Critical Reviews,7 (6),1189-1196.
5. Xudoyorov L. X. O'zbekiston hududida birinchi va ikkinchi renessansning uchinchi renessansga bo'lgan poydevori. Shukronalik tinchlik va axillik asosi mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023 yil 21-oktabr.